



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AYUBJONOV A.H.

MOLIYAVIY STATISTIKA

DARSLIK



«IQTISODIYOT»

31/02/	8313		
A 38	Губернов		
	Молчанов		
	Статистика		
7: 2023	=	114.000	

437a

3.1/07/

A38


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



AYUBJONOV A.H.

MOLIYAVIY STATISTIKA

Darslik



TOSHKENT - «IQTISODIYOT» - 2023

TDIU
Kutubxonasi

h/v 8313

UO'K:311(075.2)

КБК:60.6я73

Ayubjonov A.H. «MOLIYAVIY STATISTIKA» Darslik. –T.: «IQTISODIYOT», 2023. – 176 b.

O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida, mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash hozirgi zamon dolzarb masalasi bo'lib, u barcha fanlar bo'yicha mazmunli o'quv adabiyotlari yaratishni taqozo qiladi.

Darslikda moliyaviy statistikaning predmeti, vazifalari va tashkil qilinishi masalalari keng yoritilgan. Shuningdek, unda moliyaviy statistika fanining predmeti, vazifalari va o'rganish usullari; Davlat byudjeti statistikasi; Banklar faoliyati statistikasi; O'zbekiston davlat byudjetining statistik tahlili; O'zbekiston banklarining xalqaro moliya insitutlari bilan o'zaro xamkorligi; Valyuta bozori statistikasi; Valyuta bozorini statistik o'rganish; Fond bozori statistikasi; Banklarda qimmatli qog'ozlar operatsiyalari statistikasi ko'rsatkichlarini hisoblash va ularning iqtisodiy-statistik tahlili metodologiyasi haqida fikr yuritilgan. Darslik moliyaviy statistika fanini o'rganuvchi barcha statistika, moliya-iqtisod ixtisosligi talabalari, magistrarlari, doktorantlari hamda mutaxassis amaliyotchilarga mo'ljallangan.

В условиях либерализации экономики в Узбекистане кардинальное улучшение качества подготовки специалистов является актуальным вопросом современности, что требует создания современных учебников и учебных пособий по всем предметам высшего образования.

В учебнике широко освещены задачи и организация финансовой статистики. В нем рассмотрены также следующие вопросы: Предмет, задачи и методы статистики финансов; Статистика государственного бюджета; Статистика деятельности банков; Статистический анализ государственного бюджета Узбекистана; Взаимодействие банков Узбекистана с международными финансовыми институтами; Статистика валютного рынка; Статистическое изучение валютного рынка; Статистика фондового рынка. Учебник предназначен для студентов всех статистических, финансово-экономических специальностей, магистрантов, докторантов и специалистов-практиков.

In the conditions of liberalization of the economy in Uzbekistan, radical improvement of the quality of training of specialists is a topical issue of the present time, which necessitates the creation of meaningful textbooks in all disciplines.

The book covers a wide range of subjects, functions and organization of financial statistics. In addition, it includes subjects, functions and methods of study of the subject of Financial Statistics; Statistics of the state budget; statistics of the activity of banks; statistical analysis of the state budget of Uzbekistan; interaction of banks with international financial insitutes; statistics of the foreign exchange market; statistical study of the foreign exchange market; statistics of the stock market; There is an opinion on the methodology of calculating the statistics of securities transactions in banks and their economic and statistical analysis. The book is intended for students of all financial and economic specialties, masters, doctoral students and specialist practitioners of financial institutions studying the subject of financial statistics.

*Darslik Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy
kengashining qaqori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-9642-4-2

© «IQTISODIYOT», 2023.
© Ayubjonov A.H., 2023.

KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda moliya bozorini yanada rivojlantirish, aholini sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu sohada iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barqaror o'sishining ta'minlashga, aholi hayotining sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy xizmatlarni faol rivojlantirish respublikada moliya bozorining rolini kuchaytirishni va moliya vositalarini keng qo'llashni taqozo etmoqda.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish albatta yuqori malakali mutaxassis kadrlar tomonidan bajariladi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarida zamon talabiga javob beradigan mutaxassislik fanlarini o'qitishni taqozo etadi.

Shu maqsadda, mamlakatimizda oliy ta'lim sifati yanada oshirish borasida bir qator taqsinga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz tomonlaridan oliy ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar va farmonlar qabul qilindi. "Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta qurib chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli soxalarda kadrlarni tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalari turibti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar doirasida so'nggi yillarda milliy statistika soxasini rivojlantirish yuzasidan ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soxani isloh qilish, amaliyotga xalqaro standart hamda ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish va eng asosiysi, statistic ma'lumotlarning ishonchiligi, shaffofligi, ochiqligini ta'minlashga qaratilgan xujjatlar ijrosiga alohida e'tibor berilayapti. Sohada so'nggi 5 yil mobaynida amalga oshirilgan islohatlar natijalari keng jamoatchilik, Shu jumladan, xalqaro statistika hamjamiyati va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Xar qanday tizim samaradorligi, uning huquqiy-me'yoriy asoslari qay darajada mukammalligiga bog'liq. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi yanggi qonuni ishlab chiqildi va Oliy Majlis Senati tomonidan maqullandi. Soha qonunchiligida 2020 yil 16 martda qabul qilingan "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi

O'zbekiston Respublikasi qonuni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, u mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor axolini ro'yxatga olishni o'tkazish va uning tizimli amalga oshirilishini ta'minlashning huquqiy poydevorini yaratadi. Ushbu tadbir 2024 yilga belgilangan.

Yaqinda Mustaqillikning 32 yilligini nishonlash arafasida turgan O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich, oldindan puxta ishlangan model asosida qurayotganligi natijasida, mustahkam moliyaviy, iqtisodiy, byudjet, bank kredit tizimi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan resurslar zahirasi yaratildi. Bugungi kunda respublikamiz tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida taraqqiy etgan etakchi davlatlar bilan hamkorlikda ish olib borayotgani, yurtimizga investisiyalar orqali yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelayotgani hech kimga sir emas. Shunga qaramasdan, O'zbekiston ham inqirozni bartaraf etishning zaruriy chora tadbirlarini ishlab chiqishi zarur.

Yurtimizda 2017-2021 yillarda mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakatlar strategiyasini Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq oliy ta'lim tizimida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yaxshilash va kengaytirish bilan bir vaqtda oliy ta'lim tizimini isloh qilishni talab qiladi. Buning uchun, birinchi navbatda, oliy ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat standartlarida ko'zlangan fanlarning mazmuni va o'quv dasturlarini xalqaro andozalarga moslashtirib takomillashtirish zarur.

Ushbu darslik Oliy ta'lim "Statistika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha taxsil oluvchi bakalavrlar uchun Davlat ta'lim standartlari talablarida ko'zlangan "Moliyaviy statistika" fanining O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan Namunaviy Dasturiga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur darslik Moliyaviy statistikaning umumslubiy masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Unda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan va interaktiv ta'lim usullaridan foydalanilgan. Har bir mavzu masalalarini bayon etishda dasturlangan o'quv texnologiyasi tamoyillari qo'llanilgan. Jumladan, asosiy ilmiy tushuncha va kategoriyalar hamda nazariy masalalar mazmunini oydinlashtirish uchun dastlab ular muhim mantiqiy tuzilmaviy elementlar va xarakterli jihatlariga ajratilib, sxema - tarhlar, chizma va boshqa ko'rgazmali shakllar orqali tasvirlangan. So'ngra ular har taraflama izohlanib, hayotiy misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Darslikda ayrim mavzular, masalan, Moliyaviy statistika fanining predmeti, vazifalari va o'rganish usullari; Davlat byudjeti statistikasi; Banklar faoliyati statistikasi; O'zbekiston davlat byudjetining statistik tahlili; O'zbekiston banklarining xalqaro moliya insitutlari bilan o'zaro

xamkorligi; Valyuta bozori statistikasi; Valyuta bozorini statistik o'rganish; Fond bozori statistikasi; Banklarda qimmatli qog'ozlar operatsiyalari statistikasi bilan bog'liq bo'lganligi uchun axborotlar texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati va yo'llariga e'tibor jalb qilingan.

Har bir bob qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, qisqacha xulosalar, mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar bilan yakunlangan. Shu sababli ushbu darslik talabalar statistik bilimlarni mustaqil o'rganishi uchun ko'maklashadi degan umiddamiz.

Barcha bozor iqtisodiyoti rivojlangan va taraqqiy eta boshlagan mamlakatlarda, ularning universitetlari va oliy maktablarida yagona statistika kursi o'qitilib kelindi va hozirgi kunda o'qitilmoqda. Ko'p yillar davomida sinovlardan o'tgan mazkur boy tajribani hisobga olib, universitet va institutlarimizda ham ularning yo'nalishlaridan qat'iy nazar, yagona statistika kursini o'quv jarayonlarida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu bilan birga oliy ta'limning iqtisodiy yo'nalishlari bo'yicha talabalarda statistik tafakkur bunyod etish sohasida yurtimizda to'plangan tajribalardan voz kechish ham noto'g'ri bo'ladi. Bunda Moliyaviy statistika bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy statistika va tarmoq statistikolari o'qitib kelinganligi nazarda tutilmoqda. Shu sababli maskur darslik faqat Moliyaviy statistikaga oid masalalarini yoritish bilan cheklanmaydi. Unda iqtisodiy statistikaning muhim masalalari ham bayon etilgan.

Darslikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ko'p yillar davomida fanni o'qitish jarayonida to'plangan tajribalar umulashtirilgan. Ushbu darslik kamchiliklardan xoli emasligini mualliflar oldindan e'tirof etib, uning mazmuni bo'yicha qilingan xolisona taklif va maslahatlarini bajonidil qabul qilishini bildiradi va sezgir kitobxonlar o'z fikrlarini quyidagi manzilgohga yozib yuboradilar deb umid qiladi: Toshkent - 700063, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, TDIU, Statistika kafedrası.

1-BOB. "MOLIYAVIY STATISTIKA" FANINING PREDMETI, VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI

1.1. Moliyaviy statistika fanining predmeti va vazifalari

Ilk bor statistikaning vujudga kelishi amaliy ehtiyojlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Qadim zamonlardayoq qurolli kuchlarga layoqatli kishilar sonini bilish, soliqlar tortish obyektlarini belgilash zarurati tug'ilgan. Bu esa davlatni aholi soni va tarkibida bo'layotgan o'zgarishlar ustidan kuzatishlar olib borishga undagan. Qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, sanoat va boshqa sohalar hamda iqtisodiy aloqalarning taraqqiy etishi ho'jalikka oid hodisa va amallar ustidan muntazam ravishda kuzatish olib borishni taqozo etgan. Natijada baholar va savdo-sotiq statistikasi, mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimoti statistikasi va boshqa iqtisodiy statistika tarmoqlari vujudga kelgan va rivoj topgan.

Ammo, ilk bor statistika davlatni boshqarish muhim qurolli sifatida shakllangan va rivojlanib borgan bo'lsa ham, Shu bilan bir vaqtda ko'pdan ko'p voqealarni, faktlarni miqdoriy jihatdan hisobga olish va ma'lum darajada tartibga solish natijasida ilmiy jihatdan juda qiziqarli materiallar ham jam'arildi. Bu ishning dastlabki onlaridayoq sezgir kuzatuvchi tarqoq butunlay tasodifiy tuyulgan o'g'il yoki qiz bola tug'ilish soni, nikoxlanish, yoki u yoki bu yoshda o'lish soni va shularga o'xshash hodisalarda ma'lum tartib-qoidalar borligini payqab hayratda qoldi.

Amaliy faoliyatda to'plangan tajribalarni umumlashtirish yo'li bilan dastlab davlatni boshqarish uchun zarur ma'lumotlar to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va talqin etish qoidalari, tartiblari, yo'llari, usullari yaratildi. Statistika ana shunday fan sifatida qaralib yangi izlanishlar asosida boyib bordi. Uning mohiyati va usullarini takomillashtirishda matematika usullari, qurollari va yangi nazariyalaridan foydalanish juda qo'l keldi, chunki statistika ham matematikaga o'xshash sonlar, miqdorlar bilan shug'ullanadi, ammo shunday toifalari bilan-ki, ular sifatga ega bo'lib, ommaviy hodisalarni o'lchash natijasida hosil bo'ladi. Pirovard oqibatda statistik tafakkur uslubi, ya'ni statistika nazariyasi va uslubi (metodologiyasi) shakllandi. Endi bu uslub nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy voqealarni o'rganishda, balki boshqa sohalar ham birin-ketin egallay boshladi. Hozirgi vaqtda u deyarlik barcha fan va texnika sohalarida, tajriba-eksperimentlarda, fizika, kimyo, biologiya, arxeologiya, agronomiya, tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, tilshunoslik, harbiy ishlar va hatto tasviriy san'atda hamda musiqa bastalashda qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, Moliyaviy statistika yuzaki qarashda oddiy so'z bo'lsa ham, lekin ko'p qirrali mazmunga ega.

Statistikaga oid ma'lumotlar uchun umumiy o'ziga xos xususiyat shundan iboratki, ular ayrim yakka hodisalarga tegishli bo'lmasdan, balki doimo ularning to'plamini qamrab oluvchi umumlashtiruvchi miqdorlardir. Yakka hodisa, to'plamdan farqli o'laroq, mustaqil va bir - biriga

o'xshash tarkibiy elementlarga bo'linmaydi. To'plam bitta yoki bir nechta hodisaga kamayishi bilan butunlay yo'q bo'lmadan, oldingi mavqeini saqlab qoladi.

Statistika deganda ma'lumotlar to'plash jarayoni ham ularni qayta ishlab, xolisona va aniq talqin etish qoidalarini ham tushuniladi. Ana Shu mazmunda statistika ham fan, ham faoliyat sohasi, ham kasb turidir. Uyuştirilgan bilim tarmog'i ham, maqsadlarni amalga oshirish uchun kuchli qurol ham, kasbkorlik faoliyati sohasi ham hisoblanadi. Ko'zga ko'ringan iqtisodchi olim E. Keyn shohidlik qilishicha, ma'muriy muassasalarda ishlarni tasniflashga oid amerika ma'lumotnomasida statistika quyidagicha ta'riflanadi: "Statistika faktlarni xulosalar yasash uchun asos sifatida to'plash, tasniflash va miqdoriy baholash haqidagi fandir"¹ Shu jihatdan u tasviriyl statistika nomi bilan ham yuritiladi.

Shunday qilib, statistika atamasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, hozirgi kunda u quyidagi mazmunlarda ishlatiladi:

-statistika deganda turmushimizning turli tomonlari - iqtisodiy, madaniy, siyosiy, ma'naviy, sotsial-psixologik, ijtimoiy-demografik, moliyaviy va hokazo hodisalar hamda atrof-muhit holati haqidagi ma'lumotlar majmuasi tushuniladi. Bunday mazmunda bu so'z ko'proq davriy matbuot sahifalarida va axborot vositalarida ishlatiladi;

-ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash jarayoni ham statistika deb yuritiladi;

-statistik ko'rsatkichlarni hisoblaydigan va saqlaydigan, axborot xizmatlarini ko'rsatadigan maxsus tashkilotlar nazarda tutilganda ham statistika so'zi foydalaniladi. Masalan, gazeta sahifalarida "statistika bergan ma'lumotlarga ko'ra" degan ibora tez-tez uchrab turadi;

-yirik korxona va idoralarda ho'jalik faoliyat haqidagi ko'rsatkichlarni hisoblash va hisobotlar tuzish bilan shug'ullanadigan bo'lim nomi ham statistika deb yuritiladi;

-statistika deb maxsus ilm-fan yo'nalishi ham ataladi;

-statistika deganda turli ilmiy-texnika sohalarida gipotezalar yasash, baholash va yechimlar qabul qilish jarayonida statistik uslubiyatni tatbiq qilish ham tushuniladi;

-nihoyat, matematikada turli mezonlar va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar statistika deb yuritiladi.

Moliyaviy statistika moliya, bank, sug'urta, investitsiya, soliq sohalarini o'rganadi. Ular biror narsalar to'plamida va o'zaro bog'langan to'plamlar orasida kechadi. Bu yerda hodisa so'zi jamiyat hayotida, turmushda, tabiatda, bir so'z bilan aytganda, moddiy dunyoda haqiqatda bo'lgan real voqeani bildiradi. Masalan, bankdagi pul miqdori, to'lanadigan soliq miqdori, korxona va tashkilotlarning moliyaviy holati, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar miqdori, sug'urta to'lovlari va hokazolar. Jarayon so'zi voqealar oqimini, ularning ma'lum makon va zamon sharoitida qanday tezlikda kyeichishini, yuzaga chiqish yoki chiqmasligini, o'zgarishini, hodisalar rivojlanishini anglatadi.

¹ Э. Кейнс. Экономическая статистика и эконометрика. Пер. с англ. - М.: Статистика, 1997. 11 бет.

1.2. Statistika uslubiati

Ommaviy hodisa va jarayonlar har xil sohalarida kuzatiladi va turli tumandir, ularning kechish sharoitlari ham, tuzilishi ham turlichadir. Demak, bunday hodisa va jarayonlar ko'pdan-ko'p shakllarga va turlarga ega. Ayniqsa, ijtimoiy hayotdagi hodisa va jarayonlar o'zining murakkabligi va juda ko'p o'zaro bog'lanishlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli statistik qonuniyatlar ham ularda har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi va turli jihatlarini ta'riflaydi. O'z-o'zidan ravshanki, ularni qandaydir yagona bir usul yordamida o'rganib bo'lmaydi. Buning uchun maxsus usullar, yo'llar majmuasi, bilim vositalari zarur.

Umuman olganda, uslubiyat so'zi quyidagi lug'aviy ma'nolarga ega: 1) bilimning ilmiy metodlari haqidagi ta'limot; 2) biror narsani nazariy tekshirish va amaliy bajarish usuli, vositasi; 3) ayrim fan tarmoqlarida qo'llanadigan usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi; 4) ishlash va boshqarishdagi o'ziga xos uslub, ya'ni maxsus yo'llar, usullar majmuasi.

Statistika uslubiati deganda ommaviy hodisa va jarayonni ilmiy tekshirishda va boshqarishda, unda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni o'rganish va ulardan amaliy foydalanish jarayonida qo'llanadigan o'ziga xos uslub, ya'ni usullar, metodlar, yo'llar, vositalar majmuasi tushuniladi. Ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy nisbatlarini aniqlash, ularda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni oydinlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar bir necha bosqichlarga, ular esa fazalarga bo'linadi. Bosqich va fazalar o'zining maqsadi, vazifalari va xususiyatlari bilan bir biridan ajralib turadi. Shuning uchun har bir faza va bosqichda o'ziga xos tekshirish usullari, yo'llari, vositalari qo'llanadi. Shu bilan birga o'rganilayotgan soha va masalaning xarakteriga qarab, unga mos keladigan u yoki bu usul (yoki usullar to'dasi) aniq tekshirishda, uning muayyan fazasi va bosqichida asosiy, yetakchi qurol sifatida ishlatiladi.

Keng va to'la ma'noda statistik tadqiqot ikkita bosqichdan tashkil topadi:

1) *Tasviriy statistika bosqichi*

2) *Analitik statistika bosqichi.*

Birinchi bosqichda quyidagi asosiy maqsad va vazifalar ko'zlanadi: o'rganilayotgan obyektlarni spetsifikatsiyalash, ular haqida ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash, ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy me'yorlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni hisoblash, ularni ko'rkam va ixcham shaklda va zarur hollarda so'z bilan tavsiflash. Ikkinchi bosqichda esa ko'rsatkichlarni statistik tahlil qilish, ular orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarni aniqlash va baholash, o'rganilayotgan obyektlar taqsimotlaridagi qonuniyatlarni oydinlashtirish, ilmiy gipotezalarni ishonchlilik jihatdan baholash va statistik xulosalarni chiqarish va hokazolar asosiy maqsad va vazifalar hisoblanadi.

Har bir bosqichni, o'z navbatida, fazalarga bo'lish mumkin. Masalan, tasviriy statistika bosqichida quyidagi fazalar ajralib turadi: o'rganilayotgan obyektlar to'plamini, ommaviy hodisa va jarayonni spetsifikatsiyalash; ular ustida statistik kuzatish o'tkazish; to'plangan boshlang'ich

ma'lumotlarni ma'lum tartibga solish, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni hisoblash, ularni ko'rkam va ixcham shakllarda tasvirlash. Analitik statistika bosqichida esa quyidagi fazalar odatda ko'zga tashlanadi: o'rganilayotgan obyektlarning turli belgilari asosida taqsimotlarini tuzib, ulardagi qonuniyatlarni o'rganish, hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni miqdoriy ifodalash, ularni zamonda rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, ilmiy gipotezalarni baholash va statistik xulosalar yasash, murakkab jarayon tomonlari orasidagi o'zaro bog'lanishlarni integral tizim shaklida bir butunlikda tahlil qilish.

U yoki bu bosqichning har bir fazasida ommaviy hodisa va jarayonlarni tekshirishning turli usullari, vositalari, yo'llari qo'llanadi. Masalan, obyektlarni spetsifikatsiyalash fazasida ularni oddiy yoki murakkab tasniflash, elementar yoki ierarxik birlashmalarini tuzib guruhlashlar, ikkilamchi (qayta) guruhlashning turli yo'llari, klaster tahlil yo'llari va hokazolar ishlatiladi. Statistik kuzatish jarayonida ishlab chiqarish yoki laboratoriya sharoitida tajriba-sinovlar o'tkazish, hisobot yoki maxsus tekshirishlar va ro'yxatlar amalga oshirish, anketa yoki tanlama usullarda kuzatish va boshqalar qo'llaniladi. Hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganishda analitik guruhlash, parallel qatorlarni tuzish, ularning egri chiziqlarini diagrammalarda tasvirlash, balans usuli, korrelyatsion va regression tahlil usullari, dispersion tahlil usullari, ko'p o'lchovli tahlil usullari (omilli tahlil, bosh komponent usuli va h.k.) va boshqa usullardan foydalaniladi. Bundan buyon so'z asosiy usullar ustida boradi.

Moliyaviy statistika fanini o'qitishdan maqsad esa iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda ularning fan doirasidagi bilimlar bilan qurollantirish, moliyani statistikasini tashkil etish va uni amalga oshirish jarayonlarini ham nazariy ham amaliy jihatlar bilan tanishtirish, talabalarda davlat moliyasi tizimi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida moliyachi mutaxassislarga qo'yilgan malaka talablar doirasidagi kasbiy bilimlarni berishdan iboratdir. Bundan tashqari moliya fani unga qiziquvchi va unga ehtiyoj sezuvchi amaliyotchi mutaxassislarning kasbiy malakalarini oshirish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar va bazaviy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Moliya statistikasi fanining predmeti va maqsadlaridan kelib chiqib uning o'ziga xos vazifalarining mazmuni aniqlanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Moliyaviy statistika predmeti nima?
2. Moliyaviy statistika qanday statistik usullardan foydalanadi?
3. Uslubiyat deganda nimani tushunasiz?
4. Moliyaviy statistikaga oid muammolar mavjudmi? Bo'lsa qaysilar?
5. Moliyaviy statistika vazifalari nimalardan iborat?

2-BOB. DAVLAT BYUDJETI STATISTIKASI

2.1 Davlat byudjetining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'рни va ahamiyati

Davlat byudjetimamlakatda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu tizimning samarali amal qilishi mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarga erishish, Shu bilan bir qatorda, inflyasiya, ishsizlik va boshqa bir qator iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi oqibatlarni bartaraf qilish imkonini beradi. Davlat byudjetining milliy iqtisodiyotdagi eng asosiy vazifasi – bu fiskal siyosat orqali ishlab chiqarish va iste'mol orasidagi mutanosiblikni ta'minlash, shuningdek, aholi daromadlaridagi yuqori tabaqalashuvni oldini olishdan iborat. Yuqoridagi masallarning oqilona hal qilinishi mamlakat iqtisodiy qudrati bilan bir qatorda aholi farovonligini ham oshirish imkonini beradi.

Fiskal siyosat qadim-qadimdan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosi hisoblangan. Qadimda Davlat byudjetining asosiy vazifasi mamlakat mudofaa tizimini mustahkamlash, yangi erlarni bosib olish, yangi inshootlarni barpo etish bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu tizim vazifalari miqdoran ko'paydi va mazmunan kengaydi hamda butunlay boshqa masalalarni hal qilishga yo'naltirilmogda. Endilikda, davlat byudjeti tizimi nafaqat mamlakatning havfsizligini ta'minlaydi, balki bir qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Davlat byudjetining mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi asosiy vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- *iqtisodiy rivojlantirish vazifasi;*
- *ijtimoiy rivojlantirish vazifasi;*
- *xavfsizlikni ta'minlash vazifasi.*

Iqtisodiy rivojlantirish vazifasi deganda byudjet tomonidan ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish uchun amalga oshiriladigan iqtisoiy faoliyatni tushunish mumkin. Bunda davlat o'z byudjetidan ma'lum tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun subsidiya va dotatsiyalar ajratishi, ba'zi tovarlarni ishlab chiqarishga esa ma'lum imtiyozlar joriy qilishi mumkin. YAna shunday tovarlar borki, ularni ishlab chiqarish va iste'mol qilish atrof-muhit va kishilar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarda davlat ushbu tovar va xizmatlarga belgilangan soliq stavkalarini oshirish orqali ularni ishlab chiqarishni qisqartiradi va hokazo.

Ijtimoiy rivojlantirish vazifasi esa bevosita aholini ijtimoiy himoya qilish, ularning turmush farovonligini oshirish, to'laqonli hayot kechirishlari uchun ijtimoiy ob'ektlarni qurish, sog'liqni saqlash, maorif va madaniy sohalarini rivojlantirishni, shuningdek, aholi daromadlari orasidagi kuchli tabaqalashuvni tartib solishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyotiga

bosqichma-bosqich o'tish jarayonida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish ham muhim masala hisoblanadi.

Xavfsizlikni ta'minlash esa mamlakat va undagi aholining tinch va farovon hayot kechirishlari, ishlab chiqaruvchilarning erkin faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Mustaqillikka erishgach, O'zbekistonda davlat byudjeti tizimni takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlarining asosida mamlakatda qulay ishlab chiqarish muhitini yaratish, horijiy investitsiyalar uchun keng yo'l ochish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yotadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasiga muvofiq Davlat byudjeti o'z ichiga respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarni oladi.

■ *Respublika byudjeti* – Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;

■ *Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti* – Davlat byudjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha byudjet ijrosi aks ettiriladi;

■ *Mahalliy byudjet* – Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shaxar doirasidagi tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda shahar va viloyatlar doirasida byudjet daromadlari va xarajatlarning ijrosi va munbalari o'z aksini topadi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Daromadlar:

- qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshka majburiy to'lovlar;
- davlatning moliyaviy va boshka aktivlarini joylashtirilishi, foydadanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, xadya etish xuquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

- qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshka daromadlar.

Xarajatlar:

- byudjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- joriy byudjet transfertlari shaklida;
- kapital xarajatlar shaklida;

- kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjetlar transfertlari shaklida;

- davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;

- davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

- qonunhujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Daromad va xarajatlار alohida respublika byudjeti bo'yicha va alohida Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar bo'yicham ma'lum tarkibda tasdiqlanadi.

O'zbekiston Moliya vazirligining 2020 yilgi Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston byudjetining xarajatlar qismi 62,2 trillion so'mga teng bo'lib, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 34,6 trln. so'm, uy-joylar qurish dasturlarini birgalikda moliyalashtirishga kredit liniyasi 370 mlrd.so'm, NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari 15 mlrd.so'm, iqtisodiyot xarajatlari 6,9 trln.so'm, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari 3,0 trln.so'm, davlat hokimiyati, boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari 3,0 trln.so'm, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlarining zahira jamg'armalari mablag'lari 520,2 mlrd.so'm va boshqa xarajatlar 13,5 trln. so'mni tashkil qilgan.

Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar 33,1 trln.so'mni yoki Davlat byudjeti daromadlarining 53,2 foizini tashkil etdi. Jumladan, byudjetga qo'shilgan qiymat solig'idan 21,8 trln.so'm (umumiy daromadlardagi ulushi 35,1 foiz), aksiz solig'idan 8,3 trln.so'm (13,3 foiz), abonent raqamlaridan foydalanganligi uchun to'lovlardan 0,3 trln.so'm (0,5 foiz), bojxona bojlaridan 1,4 trln.so'm (2,2 foiz), transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun iste'mol solig'idan 1,3 trln.so'm (2,1 foiz) kelib tushdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, davlat Davlat byudjetining asosiy vazifasi mamlakatda har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va Shu orqali milliy iqtisodiyotning chet manbalarga qaramligini kamaytirish, iqtisodiy mustaqillikka erishish va oxir oqibatda aholi farovonligining oshishini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini optimallashtirish, aholining kam ta'minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishning soliq mexanizmini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida shakllantirish lozim bo'ladi. Ayni paytda, Davlat byudjetisiyosati ishlab chiqarishni o'stirishga va uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Soliq bazasining kengayishi o'z navbatida byudjetga kelib tushadigan soliq summasining ortishiga sabab bo'ladi.

2020 yilda ba'zi mamlakatlarda soliq yukining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri

Mamlakatlar	Soliq yuki (YAIMga nisbatan %da)	O'rtacha ish haqi, AQSH doll.
SHvetsiya	51,0	25.710
Finlyandiya	47,3	23.240
Belgiya	46,6	26.440
Fransiya	44,1	26.270
Avstriya	42,8	28.110
Germaniya	39,3	28.870
Meksika	39,3	3.600
Ispaniya	35,8	14.350
AQSH	31,8	28.020
Turkiya	22,2	2.830
Kanada	16,0	19.020

Manba: Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlari

1.1.1-jadval ma'lumotlardan ko'rinadiki, soliq siyosatining optimallasuvi, davlat byudjetiga soliq tushumlarining o'rtasiga, Shu bilan bir qatorda aholi turmush darajasining yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Ushbu sohada O'zbekistonda ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev 28 dekabr 2019 yil Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "2020 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

Davlat byudjeti statistikasi – moliyaviy statistikaning bir bo'limi sifatida, mamlakatning fiskal siyosatining asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish bilan shug'ullanadi hamda byudjet sohasining miqdoriy ko'rsatkichlari bilan uning sifat ko'rsatkichlarini o'zaro uzviylikda o'rganadi. Ushbu jarayonda statistik metodlar yordamida ushbu soha ko'rsatkichlari o'rganilib, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar bilan solishtiriladi. Hisoblangan ko'rsatkichlar standartlarga mos kelmagan hollarda ularni moslashtirish bo'yicha kerakli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi.

Davlat byudjetisiyosati milliy iqtisodiyotda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Soliq stavkalarini ko'tarish yoki pasaytirish orqali ishlab chiqarishni kamaytirish yoki oshirish. Bunda muayyan turdagi tovar va xizmatlarni, ayniqsa, aholi ko'p iste'mol qiladigan tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun soliq stavkalarini pasaytiradi va aksincha,

aholi salomatligi va atrof-muhitga zarar keltiruvchitovar va xizmatlar uchun soliq stavkalarini oshiradi va Shu orqali ularni ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga erishiladi.

2. Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun tabaqalashgan soliq stavkalarining joriy qilish orqali aholining kam daromad oluvchi qatlamining turmush darajisini yaxshilaydi va Shu orqali aholi daromadlaridagi kuchli tabaqalashuvga yo'l qo'yilmaydi.

Spunday qilib, Davlat byudjeti tizimini statistik o'rganishning asosiy maqsadi mazkur tizimning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini miqdoran o'lchash va sifat jihatdan takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Davlat byudjeti tizimi milliy iqtisodiyotda sodir bo'ladigan barcha iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirni baholashda esa statistikaning o'рни beqiyosdir. Chunki, ushbu omillarning ta'siri statistikadagi indeks yoki korrelyasion-regression tahlil asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Ushbu sohani statistik jihatdan o'rganishning yana bir muhim tomoni shundaki, unda ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda soliq stavkalari va davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiya va dotatsiyalarning o'rnini ham baholash mumkin. Bu jarayonda soliq stavkasi va boshqa omillarning ishlab chiqarish natijalariga ta'siri omilli tahlil asosida baholanadi va xulosa qilinadi. Bundan tashqari byudjet daromadlarini oshirish yo'llari va xarajatlar tarkibini optimallashtirish masalalari ham statistik tahlillar asosida amalga oshiriladi.

2.2 Davlat byudjetini tashkil etish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va ulardan O'zbekistonda foydalanish

Davlat byudjetisoyosatinitashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zamon sinovlaridan o'tgan, boshqa modellarga nisbatan yuqori samara berish ehtimolligi yuqori bo'lgan tajribalardan foydalanish rivojlanish jarayonlarini tezlashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti A.Karimov aytganlaridek: "O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan shak-shubhasiz samarali foydalanadi."²

SHundan kelib chiqib, quyida ba'zi mamlakatlarning byudjet tizimiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Avstraliya byudjet tizimi. Ushbu tizim o'ta markazlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy sektor daromadlarida federal markaz ulushi 67,4%ni, shtatlar va hududlar ulushi 27,8%ni, mahalliy ma'muriyatlarning ulushi 4,8%ni tashkil etadi. Daromad manbalarining taqsimlanishi "qatlama" prinsipiga asoslanadi. Ushbu prinsipga muvofiq, byudjet tizimning har bir darajasi o'z soliq bazasiga egabo'ladi.

² И.А.Каримов. Узбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. -Ўзбекистон:миллий истиклол, иқтисод, снєсєт за мафкура. -Т: Ўзбекистон. 1993.-40 б.

(2.1-diagramma)



European Experiences. Macroeconomic management. World Bank, 2020.

1.2.1-diagramma. 2020 yilda Avstraliya ijtimoiiy sektori daromadlaridagi ulushlar


Kanada davlat byudjetitizimi. Kanadaning byudjet tizimi markazlashgan tizimdan tabaqalashgan tizimga o'tganligi bilan ajralib turadi. Davlat byudjeti tizimi uch bosqichli, ya'ni federal, provinsiyalr va mahalliy byudjet organlariga bo'linadi. Ushbu tizimning muhim tomoni shundaki, unda soliq solish bazasi, soliq stavkasini belgilash va soliqlarni yig'ish hamda ularni boshqarish borasidagi vakolatlarning federal hukumat, provinsiyalr va mahalliy ma'muriyatlr o'rtasida taqsimlanishida o'z aksini topadi (2.2-jadval).

2.2-jadval

Kanada mamlakatida soliqqa oid vakolatlarning taqsimlanishi

Солік турі	Солік базасі	Солік ставкасі	Питтш ва бошқаршш
Божхона тўловлари	Ф	Ф	Ф
Даромад солиғи (7 провинция)	Ф	Ф, П	Ф
Даромад солиғи (3 провинция)	П	П	П
Фабрика солиғи (9 провинция)	Ф	Ф, П	Ф
Фабрика солиғи (1 провинция)	П	П	П
Бойликдан олинадиган солиқ	Ф, П	Ф, П	Ф, П
Корпоратив қилматларга солиқ	П	П	П
Роялти	П	П	П
Истеъмол бېйича сўғурт ва Пенсия ажратилмасига тўловлар	Ф	Ф	Ф
Йил ҳисобига боғлиқ солиқлар	П	П	П
Тиббий сўғуртга	П	П	П
Соғиналар:			
ётишга	Ф, П	Ф, П	Ф, П
таълим маъсулотларига	Ф, П	Ф, П	Ф, П
аҳолига ичкисинларга	Ф, П	Ф, П	Ф, П
Транспорт воситаларига рўйхатга олиш солиғи	П	П	П
Бизнесга рўйхатга олиш солиғи	П, М	П, М	П, М
Мол-мулк солиғи	П, М	П	П
Ер солиғи	П, М	П	П
Фасаднинг узунлиги ва унли солиқ	М	М	М
Бюджет мутахассислари кўрсаткичига қилинган учун тўловлар	Ф, П, М	Ф, П, М	Ф, П, М
ККС (9 провинция)	Ф	Ф	Ф
ККС (1 провинция)	Ф, П	Ф, П	П
Сўғуртлардан солиқ (қанча солиқ)	П	П	П
Далел - 100%; (Ф) федерал даража - 49%; (П) провинциялар ва (М) маҳаллий даража - 51%.			

Germaniya byudjet tizimi. Germaniya byudjet tizimining bosh maqsadi butun aholi uchun teng yashash sharoitlarini barpo etishdan iborat. Byudjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi, ular markazlashtirilgan tartibda yig'iladi va byudjet tizimining bir necha darajalari o'rtasida belgilangan ulushlarga muvofiq qayta taqsimlanadi (2.2-diagramma).



Manba: Spahn, P.B. Intergovernmental Fiscal relation in light European Experiences. Macroeconomic management. WorldBank, 2020.

2.2-diagramma. 2020 yilda Germaniya byudjet tizimi darajalari o'rtasida soliqlarning vertikal taqsimlanishi

AQSH byudjet tizimi. AQSH byudjeti – Federal xazinalar tizimi deb atalib, uning asosiy xususiyati barcha byudjet darajalarining erkinligidir. Bunday erkinlik mahalliy byudjet organlariga o'z daromadlarini shakllantirish sohasida va ularni sarflash sohasida berilgan. Amerika federal byudjet tizimining o'ziga xosligi shundaki, soliq bazalarini belgilash uchunyo'l barcha byudjet darajalari uchun ochiq. Unga ko'ra shtatlar soliq bazasini va soliq stavkalarini erkin belgilash huquqiga ega. Federal xazinalar tizimining asosiy daromad manbai yuridik va jismoniy shaxslarga solinadigan daromad solig'i hisoblanadi, u jami byudjet daromadlarining uchdan ikki qismini tashkil etadi (2.3-diagramma).